

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RUSTAMJON TOJIBOYEV

FURQAT ABADIYATI

(O'quv-uslubiy qo'llanma)

*Ona tili va adabiyoti o'qituvchilari, oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi
ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun*

“FARG'ONA” nashriyoti - 2010

Mas'ul muharir:

M. Hoshimova,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

I. Bekmurodov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
M. Jamoliddinov,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Qo'llanma Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti Ilmiy kengashining 2010 yil 12 fevraldagi 6-yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.

Tojiboev Rustamjon.

FURQAT ABADIYATI. "Farg'ona" nashriyoti, 84-bet.

Qo'llanmada milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakili Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning hayoti va ijodiy faoliyatining ayrim qirralari yoritilgan. SHuningdek, unda atoqli shoir hayoti va faoliyatining asosiy sanalari ilk bor tartibli ravishda berilgan. SHoir ijodini umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida o'rganish jarayonida ushbu qo'llanmadan foydalanish samarali bo'lishi mumkin.

Qo'llanma keng kitobxonlar ommasiga, birinchi galda, ona tili va adabiyot o'qituvchilari, o'quvchi-yoshlar va talabalarga mo'ljallangan.

"Farg'ona" nashriyoti, 2010.

FURQAT ABADIYATI

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat milliy madaniyatimiz tarixidagi yorqin siymolardan biri, ulkan ijodkor va qomusiy olimdir. Uning dil o'rtar lirik shehrlari, ajoyib nasri, publitsistikasi o'zbek adabiyoti xazinasini boyitgan bo'lsa, adabiyotshunos va tarixchi, etnograf (elshunos) va tarjimon, jurnalist va xattot, geograf va hakim sifatidagi serqirra faoliyati ham tahsinga sazovor. Atigi 51 yillik umri (1859 - 1909) davomida Furqat madaniyatimiz taraqqiyotiga ulkan ulush qo'shganiga uning boy ilmiy-adabiy merosi dalil bo'la oladi.

Furqat shoir va olimlar shahri Xo'qandi latifda tavallud topdi. Shoirning otasi Xolmuhammad garChi savdo ishi bilan mashg'ul esa-da, o'qimishli, ilm – mahrifatni qadrlovchi insonlardan bo'lgan. Zokirjon bolalik va o'smirligida 10 -yil ilm tahsili bilan band bo'ldi – dastlab maktabda, so'ng madrasada tahlim oldi. Shu -yillar uning ilm –mahrifatli inson sifatidagi shakllanish -yillari bo'ldi desak, yanglishmagan bo'lamiz.

U 9 yoshidan boshlab shehriy ijod bilan shug'ullanadi, hatto tushida hazrat Mir Alisher Navoiy duosiga sazovor bo'ladi. O'n yoshida xattotlikni o'rganadi. O'n ikki yoshida Qurhoni karimni xatm qilib, qori bo'ladi. Sharq adabiyotining zabardast vakillari Hofiz Sheroziy, Sahdiy Sheroziy, Bedil, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy, So'fi Olloyor va boshqa mumtoz adiblarning asarlarini mutolaa qiladi, arab va fors tillarini puxta o'rganadi.

1876-yili Qo'qon xonligi tugatilib, o'rnida Rossiya imperiyasiga tobe Farg'ona oblasti tashkil etilgan, shahardagi madrasalarda o'qishlar birmuncha vaqt to'xtab qolgan, talabalar uy-uylariga tarqab ketgani mahlum. Shundan so'ng Zokirjon otasining savdo–sotiq ishlariga yordam beradi. So'ng uning hayoti Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona), Marg'ilon, yana Qo'qon shaharlarida o'tadi. Savdogarlik qiladi, madrasa tahlimini davom ettiradi. Olim va fozillar, shoirlar orasida o'z istehdodi va bilimi bilan hurmat-ehtibor qozonadi. Uning nomi Muhyi, Muqimiy, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir, Xojajon Rojii, Umidiy–Havoii, Ishoqxon Ibrat, Nodim Namongoniy, Yoriy, Zoriy, Roiq, Nusrat kabi shoirlar qatorida tilga olinadi. Shehrlari qo'lyozma bayozlardan o'rin olib, muxlislar orasida tarqala boshlaydi. Mug'anniyalar Furqatning go'zal g'azallari, muxammas va musaddaslariga kuy bastalaydilar, hofizlar ularni sevib ijro etadilar.

Biroq taqdirning beshafqat hukmi uni ona–shahridan Chiqib ketishga majbur qiladi. 30 yoshida Qo'qondan sayohat bahona bo'lib ketib qolgan Furqat ona–shahriga boshqa qaytmadi. U dastlab Xo'jandda 3-4 oy, so'ng Toshkentda qariyb ikki -yil istiqomat qiladi. Yangi–yangi do'stlar orttiradi. Zero, Furqat kabi dilbar insonlarning, fozil va shoirlarning har erda muxlislari ko'p bo'ladi. Muxlislik shoirning xushmuomalasi tufayli do'stlikka aylangan bo'lsa ajabmas. Furqat do'st–oshnolarining yordamida Toshkentda ham ehzozda bo'ldi. Ularning ko'magida Toshkentda Yevropa madaniyati bilan tanishdi va bu voqea uning hayotida ulkan burilish yasadi. Hassos shoir qalbiga YevropaCha tahlim tizimi, sanhati, ilm–fani yutuqlari, teatri, texnikasi juda katta tahsir ko'rsatdi. Tolibi ilmlarning gimnaziyada dunyoviy fanlarni, turli tillarni zavq–shavq bilan o'rganayotganlari uni lol qoldirdi. Gimnaziya direktori va ayni paytda “Turkiston

viloyati gazetasi”ning muharriri N. P. Ostroumovning taklifi bilan taassurotlarini maqola va manzumalarida ifodaladi. Ular peshma–pesh gazetada ehlon qilib turildi. Shoirning o’zi ham bir munda vaqt gazeta tahririyatida ishlagan mahlum.

U birinchi o’zbek jurnalisti sifatida tanildi.

1891 -yilning 14 mayida haligacha nomahlum bo’lib kelayotgan sabablarga ko’ra Furqat Toshkentni tark etadi. Samarqand, Buxoroga boradi, Krasnovodsk, Boku, Tiflis, Batumi orqali Istanbulga etib boradi. Bu erda bir muddat istiqomat qilgan shoir Yunoniston, Bulg’oriya o’lkalariga sayohat qiladi.

Shoir 1892 -yilda muborak haj ziyoratini amalga oshiradi. Makka, Madina, Jidda shaharlarida bo’ladi, Misrni sayohatchi sifatida kezib Chiqadi. Shundan keyin uning yo’li Hind diyori sari tushadi. Olti oy mobaynida (1892 -yil sentabrga - 1893 -yil mart) Bombay shahrida istiqomat qilib, Hindiston va uning xalqi hayoti bilan yaqindan tanishadi. So’ng Kashmirga boradi, undan Xo’tan vodiysi orqali 1893 -yilning sentabrida Yorkent shahriga keladi va shu erda umrining oxiri (1909 -yil sentabrga)gaCh qoladi.

Furqat Yorkentda uylanadi, farzandlar ko’radi, tirikchilikni o’tkazish uchun tabiblik bilan shug’ullanadi, xattotlik qiladi. U ona-vatani, vatandoshlari, do’st-og’aynilari bilan aloqani uzmaydi, ular bilan xat yozishib turadi. Qadrdon “Turkiston viloyati gazetasi”ga ham 1906-yilgaCh maqolalar, shehrlar yozib yuborib turadi.

Shoirning qabri Yorkentda mavjud bo’lib, 1991 -yili uning ustiga muhtasham maqbara - yodgorlik bunyod etildi. Furqatning avlodlari hozir ham Yorkentda yashab kelmoqdalar.

Zokirjon Furqatning nomini abadiyotga daxldor qilgan, shubhasiz, uning ilmiy-adabiy merosidir. Uning go’zal lirikasi, nasri va ilmiy asarlari, publitsistikasi, maktuboti hanuzgaCh o’z ahamiyatini yo’qotmay kelmoqda. Ayniqsa, shoirning lirik merosi – g’azallar, muxammas, musaddas, masnaviy, tarjiband, qasida, qitha, fardlari mumtoz shehriyatimizda o’ziga xos o’ringa ega. Ular rang-barang mavzularda yuksak sanhatkorlik bilan yaratilgan. Ishqiy mavzumi, tabiat mavzusimi, ijtimoiy mavzumi – barChasida Furqat birday mahorat bilan qalam tebratgan. Uning hayot go’zalligini, umr g’animatligini, olam go’zalini tahriflab yozgan shehrlari hamon o’quvchi qalbiga olam–olam quvonCh solib, dil dardlariga malham bo’lib kelmoqda. Quyidagi mashhur baytlarga bir diqqat qilaylik:

***Bahor ayyomi gul – gasht etarg’a bir haman bo’lsa, c
Qilurg’a sharhi hol ahli muhabbat – ikki tan bo’lsa...***

***Ul qaro ko’z ko’zlarig’a surma bejo tortadur,
Balki andin dahr eli ortuqcha g’avg’o tortadur...***

***Biz, istig’no eli, qichqirmag’on mahvog’a bormasmiz,
Agar chandiki xirman aylasa, dunyog’a bormasmiz...***

*Bir nafas ham bo'lmag'il bedardlarg'a hamnishin,
Qayda bir ahli muhabbat bo'lsa, anga yor bo'l..*

*Ahli dunyo suhbatini ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip – qizil qon yaxshiroq..*

*Kuymasun bu savdodin ne uchun dimog'imkim,
Ranju g'ussada dono, kechsa shod nodonlar..*

*G'aribi bu viloyat – xonumonidin adashganman,
Basoni murg'i vahshiy oshyonidin adashganman...*

*Qaroyg'on dilga bergil nuri pokingdin ziyo, yo Rab,
Ketib zangi gunah oynadek topsin jilo, yo Rab...*

*Jahon basti kushodi ilm birla,
Nadur dilni murodi ilm birla.*

*Ko'ngillarni(ng) sururi ilmdandir,
Ko'rar ko'zlarni(ng) nuri ilmdandir.*

MenimCha, mazkur baytlarni izohlab o'tirishning hojati yo'q. Ularning barChasi o'quvChiga yaxshi tanish, qadrdon bo'lib kelgan nazm injularidandir. Ularda ifodalangan mazmun esa bugungi kundagi o'quvChini ham hayajonga soladi, qalbiga quvvat–mador bag'ishlaydi. Nazm oshig'i bo'lgan kitobxon ulardagi abadiylik belgilari bo'lmish mahno tovlanishlaridan o'ziga ham pand – o'git, zavq va surur oladi. Mumtoz shehriyatning siru sinoati ham shunda bo'lsa kerak.

Furqatning Rossiya mustamlakaChilik siyosatidan faryod Chekib yozgan “Munojot-musaddas”i esa istiloChilar zulmi ostida behad jabru jafolar ko'rgan xalqning nolalariga hamohang edi:

*Qoziyu mufti, ahlam doim hazinu mahyus,
Din posini tutay deb zindoni g'amda mahbus,
BeChoralar na qilsun, bo'lsa siyosati Rus,
Qo'ymaydi bir tarafdin xalq ichra nangu nomus,
Rahm aylagin, Xudoyo, beChora xastalarga,
Ranjuru zoru mahzun ko'ngli shikastalarga.*

1878-1879 -yillarda yozilgan bu shehrda najotni yolg'iz xudodan izlagan shoir keyinChalik Yevropa madaniyati bilan yaqindan tanishgaCh, faqat ilm-mahrifatgina xalqimizni Rossiyaning mustamlakaChilik kishanlaridan ozod qilajagini tushunib etdi. Shuning uchun ham u o'z ijodining katta qismida xalqimizni dunyoviy ilm-fanni egallashga, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan bahramand bo'lishga baralla Chaqirdi.

Shoirning bu buyuk orzusi 1991 -yilda ro'yobga Chiqdi. Zamonaviy ilm-fan, siyosat va iqtisodda jahondagi boshqa ilg'or mamlakatlar darajasiga etib olgan Vatanimiz osmoni uzra istiqloq quyoshi porladi.

Furqatning haj taassurotlari asosida yozgan "Hajnoma" manzumasi ham adabiyotimiz tarixida, mahnaviyatimiz tarixida ardoqli asarlardan desak, yanglishmagan bo'lamiz. Sho'rolar zamonida xalqdan yashirib kelingan bu asarda muborak Haj ziyoratini amalga oshirish baxtiga musharraf bo'lgan komil musulmon qalbidagi zavq-shavq, orifona tavba-tazarru go'zal misralarda o'z aksini topgan.

Adibning ijodiy merosida "Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli, o'zi yozg'oni" nasriy asari ham bor. Bu asar memuar – esdaliklar tarzida yozilgan. Unda shoirning bolalikdan to 1891 -yilgaCha keChgan hayoti haqgo'ylik va shirali til bilan bayon qilingan. Asar shoir hayot yo'lini va o'sha davr adabiy – madaniy muhitini o'rganishda muhim qimmatga ega.

Furqatning "Qavoidi CHin va umuroti siyosiy" asari esa Xitoy davlati qonun-qoidalari tahrifiga bag'ishlangan va o'sha davr matbuotida (1905 -yil oxiri – 1906 -yil boshlari) Chop etilgan. GarChi gazetada asarning oxirgi qismlari nima uchundir Chop etilmagan bo'lsa ham, uning mavjud qismlari Furqat tafakkur olamining kengligiga, iqtidorining serqirraligiga dalil bo'la oladi.

Furqatning aruz vazni qoidalariga bag'shlangan "Ilmi shehrning qoidai avzonini bayoni", etnografiya (elshunoslik)ga oid "To'y xususida", "Aza xususida", "Gap xususida" risolalari ham mahlum qimmatga ega.

Furqatning publitsistik faoliyati, o'tkir siyosiy mavzudagi maqolalari, felhetonlari o'zbek matbuoti tarixida yuksak o'rin tutadi.

U o'zbek adabiyoti tarixidagi ilk felg'eton va pamfletlarni yaratdi. Xalqaro jurnalistikamiz tamal toshini ham Zokirjon Furqat qo'ygan edi.

Biz mazkur kichik maqolada serqirra ijodkor Zokirjon Furqat ijodiy faoliyatini ayrim jihatlariga to'xtab o'tdik. Uning ijodiy merosi haqida katta-katta kitoblar yozilgan. Ulug' adibning 150 -yillik qutlug' to'yi yurtimizda keng nishonlanayotgan ushbu damlarda buyuk bobomizni shu tariqa eslash bilan uning pokiza ruhini shod qilgan bo'lsak, naqadar baxtiyormiz.

“FASLI NAVBAHOR O’LDI” G’AZALI TARIXI

Zokirjon Furqat adabiy merosidagi eng mashhur shehrlardan biri, shubhasiz, “Fasli navbahor o’ldi, ketibon zimistonlar...” deb boshlanuvchi g’azaldir. Akademik A.P.Qayumov tahrificha, “Furqat bu shehrida ham tabiat go’zalligining sehrli kuychisi sifatida ko’rinadi”.¹

Taniqli furqatshunos, filologiya fanlari doktori, professor A.Abdug’afurov esa mazkur g’azalni “ faqat shoir lirik merosidagina emas, balki butun o’tmish poeziyamizda yaratilgan peyzaj lirikasining etuk namunalari jumlasiga kiritish mumkin” deb hisoblaydi.²

Fasllar kelinchagi bo’lmish bahorni jo’shqin ehtiros va yuksak badiiy sanhatkorlik bilan kuylagan Furqat mazkur g’azali bilan abadiyatga daxldor bo’lgan desak, yanglishmagan bo’lamiz. O’zbekiston xalq artisti, marhum Tavakkal Qodirov ijrosidagi qo’shiq esa g’azalning xalqimiz orasida yanada ommalashuviga xizmat qildi...

Har bir mashhur asarning yaratilish tarixi bor, albatta. Bu ko’pchilikni, eng avvalo, adabiyotchilarni qiziqtirishi tabiiy. Men ham ko’p -yillardan buyon adabiyotimiz tarixini baholiqudrat o’rganib, uning sir-asrorlarini bilishga intilib kelayotgan bir mutaxassis sifatida mazkur g’azalning yozilish tarixini bilishni istaganman. Afsuski, adabiyotshunosligimizda mumtoz asarlarimizning yozilish tarixiga oid ma’lumotlar juda ham kam. Buning boisi, avvalo, o’zbek adabiyoti tarixiga oid manbalarning etarli darajada emasligida bo’lsa kerak. Chunki bizda o’tmish adiblarimizning, hatto, eng mashhur shoirlarimizning kundalik daftarlari yo’q. Ular kundalik daftar tutgan-tutmaganlari ham bizga nomahlum. Tutgan bo’lsalar ham bizga cha etib kelmagan. Mashhur rus adiblarining kundaliklari jild-jild bo’lib, necha-necha kitob bo’lib chiqqani ko’pchilikka yaxshi ma’lum. Ularda o’sha adibning qaysi asari qachon, qayerda, qaysi vaziyatda, nima sababdan yozilgani aniq-tiniq yozib qo’yilgan. Bizda esa bunday hol juda ham kam uchraydi...

Shunday bo’lsa-da, “Fasli navbahor o’ldi” g’azalining yozilishi tarixi haqida bahzi kuzatishlarimiz va mulohazalarimizni bildirishga jurhat etamiz.

Ma’lumki, Furqat ijodining dastlabki -yillarida mumtoz shoirlarimizning eng go’zal asarlari, birinchi navbatda, g’azallari tahsirida ko’plab shehrlar bitgan. Bu haqda uning o’zi 1891 -yilda yozilgan

“Xo’qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli, o’zi yozg’oni” nomli asarida quyidagilarni qayd etgan: “Chun yoshim soati umr shabru ro’zida yigirma to’rt shumorig’a etti. Ul vaqt Xo’qand viloyatidagi fozil va raso tabh kishilar birla ittihad aylab, alarning suhbatidin ko’b bahralar topdim va asr shuarolarikim, Chunonchi, mavlono Muhyi va mavlono Muqimiy va mavlono Zavqiy va mavlono Nisbatdurlar, hamisha majlis bunyod aylab, zodai tabhlarimizdin mushoara qilur erduk va bir g’azalda tatabbuh ko’rguzub, bir

¹ Qayumov A. Shehriyat jilolari. Toshkent, “O’qituvchi”, 1997, 41-bet.

² Abdug’afurov A. Zokirjon Furqat. Hayoti va ijodi. Toshkent, “FAN”, 1977, 121-bet.

mazmun har navh ifoda topar erdi. Goho hamd gulshanidin gul uzub, goho naht naxlistonidin samarChin bo'lur erduk va bahzi vaqt ishq tavsifi va husn tahrifida g'azal mashq aylab va gohi qadimiy shuarolar devonlaridan bir sho'x g'azalni topib, anga har qaysimiz alohida muxammas bog'lar erduk".¹

Ushbu qaydlardan "Fasli navbahor o'ldi" g'azalining yozilish tarixiga oid kalit topilganday bo'ldi, yahni menda "Bu g'azal mashg'ur g'azallardan biridan ilhomlanib va unga javob tariqasida yozilganmikan?" degan savol paydo bo'ldi. CHunki Qo'qon adabiy muhiti asosChisi Umarxon – Amiriyning mazkur g'azal vazni va qofiyasida yaratgan

***Ko'rdi nozaninlardin tugmai giribonlar,
To'kdi mardumi chashmim qatra-qatra marjonlar,-***

matlahli g'azali adabiyot ahliga yaxshi mahlum. CHunki bu g'azal Amiriyning 1972 va 2008 -yillari Chop etilgan devonida mavjud. Bundan tashqari, Amiriyning o'nlab g'azallariga qo'qonlik shoirlar tatabbuhlar yozganlari, ularning aksariyati Fazliy tomonidan 1821 -yilda yaratilgan "Majmuai shoiron" tazkira-majmuasiga kiritilganidan ham xabardor edim. Mazkur qimmatbaho adabiy manbaning 1900 -yilda Toshkentda, V.M.Ilg'in matbaasida chop etilgan nusxasini ko'zdan kechirib Chiqdim. Natijada unda Amiriyning mazkur mashhur g'azaliga 19-asr boshlarida Qo'qonda yashab ijod etgan Vazir, Ado, Nola, Afsus, Mir Asad, Dabir, Xotif, Xijlat, Rindiy, Nuzhat, Qozi Ernazar (Maknun), Mushrif, Hijrat, Maxmur, Manzur, Gulxaniy, Vafoiy, Behjatlarning javob g'azallari yozganlari mahlum bo'ldi. Ulardan o'sha paytlarda hali juda yosh bo'lgan Mirzo Ayyub Behjat(taxm.1800-1870)ning g'azali diqqatimizni o'ziga jalb qildi. Bu g'azalning to'liq matnini quyida keltirishni lozim topdik:

***Fasli navbahor o'ldi, tozaro' gulistonlar,
May bila qiling, ahbob, o'zga ahdu paymonlar.***

***Ayb emas, agar har dam o'psalar ayog'ini,
Kokilin giriftori zulfidek parishonlar.***

***Ul pari erur Layli, el bo'lib anga Majnun,
Kездilar quyun yanglig' vodiac-u biyobonlar.***

***Ko'zi husn bog'ida nargisu yuzi guldir,
Og'zi g'unchai xandon, kiprigi hiyobonlar.***

***O'rgatib qading vasfin ishq maktabi ichra,
Saqladi "alif" yanglig' dil arosig'a jonlar.***

¹ Furqat. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik, ikkinchi tom. Toshkent, 1959, 139-140-betlar.

***Masti nozi kofurdur, begunoh qatl aylar,
Chiqsa har zamon sarxush, tajang, ey musulmonlar.***

***Baski xatti yodida jon berur edim, Behjat,
Tong emas, agar Chiqsa qabrim uzra rayhonlar.***

Amiriy zamondoshlaridan bo'lgan shoir Dabir(18-asrning ikkinchi yarmi - 1834)ning mazkur tazkiradan o'rin olgan

Mavsumi bahor o'ldi, toza ro' gulistonlar,

Sabza xurramu xandon sahni bog'u bo'stonlar, -

matlahli g'azali ham bahor tahrifi bilan boshlanadi. Ammo ikkinchi baytdan gulzorda sayr etib yurgan go'zallar tavsifiga o'tiladi.

Demak, Furqat o'z g'azalini yozishda Behjat va Dabirlarning mazkur shehrlaridan tahsirlangani shubhasiz. Chunki vazn bir – ular hajazi musammani ashtar (foilun/mafoiylun/foilun/mafoiylun) o'lchovida yaratilgan. Qofiyalar ham bir xil. Lekin Furqat javob g'azalida salafaridan faqat shaklni va Behjat g'azalidagi ilk jumlanigina olgan, xolos. Hassos shoir mutlaqo yangi mazmunli shehr yaratgan. Chunki Behjat va Dabir g'azallarining birinchi baytigina bahor tahrifiga bag'ishlangan. Furqatda esa sakkiz baytli g'azalning etti baytida bahor tasviri mavjud:

***Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar,
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.***

***Subhidam tushub shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam yog'di abri naysonlar.***

***Nastaran yuvib yuzni, yosuman to'zib o'zni,
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.***

***Bir sahar edim uyg'oq, o't tutshti olamg'a,
Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar.***

***Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv, gul uza doim tortar ohu afg'onlar.***

***Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.***

***Kechtilar vafo ahli qolmayib tutub savsan,
Kiydi ko'k qilib sunbul zulfini parishonlar...***

Furqat navbahorni tahriflar ekan, ikkinchi va uchinchi baytlarda yuksak badiiy sanhatkorlik ko'rsatib, musajjah (ichki qofiya) sanhatini mahorat bilan qo'llagan:

***Subhidam tushub shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam yog'di abri naysonlar.***

***Nastaran yuvib yuzni, yosuman to'zib o'zni,
Nargis oChibon ko'zni intizori yoronlar.***

Dabirning eslatilgan g'azalida ham ichki qofiyali ikkita bayt mavjud:

***Ko'zi kofiri tarso, zulfi anbari soro,
Orazi guli zebo, xatti xoli rayhonlar.***

***Nozanin zulm ijod, kofiri faranggi dod,
Aqlu dinimi barbod qildi, ey musulmonlar.***

Furqatning g'azalda musajjah sanhatini qo'llashida Dabirning ushbu baytlari ilhom bergan o'lsa, ne ajab?!

Xulosamiz shuki, Furqatning "Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar" misrasi bilan boshlanuvchi mashhur g'azali shoir ijodining birinchi bosqichida qo'qonlik shoirlar Behjat va Dabirlarning g'azallaridan ilhom olib yaratilgan. Agar kelajakda bu g'azalning yaratilish tarixiga oid boshqa aniq ma'lumotlar Chiqib qolsa, biz bundan baxtiyor bo'lur edik.

“UCH XAROBOTIY” KIMLAR EDI?

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning boy va rang-barang adabiy merosida adabiyotshunosligimizda shartli ravishda “Uch xarobotiy” deb atab kelinayotgan musaddasi ham borligi barChamizga yaxshi ma'lum.

*Uch xarobotiy erurmiz, sokini mayxonamiz,
Xum boshidin Charx urub, monandi bir parvonamiz,
Mast o'lubmiz, jo'shishi maydin ajab devonamiz,
Xolimiz dunyo g'amidin, forig'i koshonamiz,
YOr bizning yorimiz, jonon bizing jononimiz,
Ushbu davron birla o'lsak, yo'q erur armonimiz, -*

bandi bilan boshlanuvchi mazkur musaddas mazmun va badiiy jihatidan yuqori darajada bo'lgani sababli 1958 -yilda ehlon qilinganidan buyon ko'plab yirik adabiyotshunoslar ehtiborini jalb etgan va o'zining yuqori bahosini olgan.

Ulug' shoirimiz va zukko adabiyotshunos Maqsud Shayxzoda mazkur musaddasni “Furqat lirikasining shoh asari deb sanalishga loyiq” deb tahriflaydi. Uning fikricha, “bu musaddas haqiqiy do'stlikning va hayot, baxt, sevgi tantanasining o'lmas taronasidir”.¹

Davr adabiyotini puxta o'rganib, yirik tadqiqotlar yaratgan yirik adabiyotshunos G'.Karimov unda Furqat dunyoqarashining muhim tomonlari aks etishi bilan birga uning ijodiy-estetik pozitsiyasi ham ifoda qilinganini tahkidlagan.²

Taniqli furqatshunos A.Abdug'afurov uni “falsafiy-so'fiyona yo'nalishiga ega bo'lib, Furqat lirikasining boshqa namunalaridan ajralib turadi” deb tahriflaydi.³

Akademik A.Qayumov mazkur musaddasning shoir ijodida alohida o'rin tutishini tahkidlab, “bu musaddas Furqat va yana o'sha doiradagi ikki shoir ishtirokida mushoira yo'li bilan yozilgan shehr bo'lsa kerak” deb taxmin qiladi.⁴

Ustoz adabiyotshunoslarimizning bu mashhur musaddas haqidagi fikrlari bizni izlanishlarga Chorladi. Ayniqsa, akademik A.P.Qayumovning musaddas muallifligi masalasida bildirgan fikrlari shehrning yozilish tarixini va undagi uch xarobotiyning kimlar ekanini aniqlashga bo'lgan ishtiyoqni oshirdi.

Mahlumki, Furqat ijodining dastlabki -yillarida uning Xo'qandi latif adabiy muhiti vakillari bilan ijodiy hamkorligi samarali bo'lgan. Uning ko'plab g'azal va muxammaslari shu ijodiy hamkorlik natijasida yaratilgani shubhasiz. Bu haqda uning o'zi 1891 -yilda yozilgan “Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli, o'zi yozg'oni” nomli asarida quyidagilarni qayd etgan: “Chun yoshim soati umr shabru ro'zida yigirma to'rt shumorig'a etti. Ul vaqt Xo'qand viloyatidagi fozil va raso tabh kishilar birla ittihad aylab, alarning suhbatidin ko'b bahralar topdim va asr shuarolarikim, Chunonchi, mavlono Muhyi va mavlono Muqimiy va mavlono

¹ Shayxzoda, Maqsud. Furqat haqida qaydlar//Kitobda: Furqat va Muqimiy haqida maqolalar. Toshkent, O'zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958, 67-68-betlar.

² Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Uchinchi kitob. Toshkent, “O'qituvchi”, 1975, 191-bet.

³ Abdug'afurov A. Zokirjon Furqat(hayoti va ijodi) Toshkent, “Fan”, 1977, 128-bet.

⁴ Qayumov A. Shehriyat jilolari. Toshkent, “O'qituvchi”, 1997, 92-93-betlar).

Zavqiy va mavlono Nisbatdurlar, hamisha majlis bunyod aylab, zodai tabhlarimizdin mushoara qilur erduk va bir g'azalda tatabbuh ko'rguzub, bir mazmun har navh ifoda topar erdi. Goho hamd gulshanidin gul uzub, goho naht naxlistonidin samarChin bo'lur erduk va bahzi vaqt ishq tavsifi va husn tahrifida g'azal mashq aylab va gohi qadimiy shuarolar devonlaridan bir sho'x g'azalni topib, anga har qaysimiz alohida muxammas bog'lar erduk".¹

Furqatning mazkur so'zlaridan ilhomlanib, "Uch xarobotiy" musaddasining qahramonlarini bilishga intilish bizni izlanishlarga dahvat qildi. Shunda mazkur musaddasga vazni va qofiyalanishi jihatidan yaqin bo'lgan uch g'azal diqqatimizni o'ziga tortdi. Ular qo'qonlik olimlar – zahmatkash adabiyotshunos, zukko matnshunos, marhum Ahmadjon Madaminov va A.Turdialievlar tomonidan nashrga tayyorlanib, Chop etilgan qo'qonlik boshqa bir mashhur shoir – Furqatning do'sti, hamfikri, hammaslagi atoqli shoir Ubaydulloh Zavqiyning "Ajab zamona" shehrlar to'plamidan o'rin olgan. Bu g'azallarni quyida keltirishni lozim topdik:

Birinchi g'azal

Bodai vasling qaChon no'sh etibon qonamiz?

OngaCha hijronda bo'lg'aymu bizi mayxonamiz?

Shamhi olamso'z husningni ko'rub, parvonavash

Umrlardur otashi ishqing aro o'rtonamiz.

Bir muruvvat ko'rguzub, xurshidi olamtobdek,

Partavi husning bilan qilg'il munavvar xonamiz.

Lutf etib gar xotiri mahzunimiz shod etmasang,

Biz ham etgan vahdai ro'zi alastdin tonamiz.

Otma ko'ngul shishasig'a sangi bejo, sinmasun,

Tabhimiz ozoda deb, Farg'onada maxtonamiz.

"Ruh"ni g'olib aylag'il "shoh" ham mahalli kishtu mot,

Ishq bazmi ichra satranj o'ynag'on uch donamiz.

Ko'nglumiz aylab parishon, har tarafga tarqatib,

NeCha muddatdurki, ul novaki mujgon shonamiz.

Anbarin zulfingni bog'lab jonlara tahviz uchun,

Yoding ila keChalar goho Cho'Chub uyg'onamiz.

Zavqiy ila Furqatiy, kulbanga do'sting kelmasa,

***Aylab istig'no bizam mundoq yordin tonamiz*².**

¹ Furqat. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik, ikkinchi tom. Toshkent, 1959, 139-140-betlar.

² Zavqiy. Ajab zamona. Shehrlar. Toshkent, "Sharq" NMAK bosh tahririyati, 2003, 20-bet.

Ikkinchi g'azal

*Muddatedur, bodai ishqing ichib mastonamiz,
Masti loyahqil bo'lub, el ichra ko'p afsonamiz.*

*Istama dur aylamak shamhi jamolingdin bizi,
Rahm qilkim, jonu dil qilg'an fido parvonamiz.*

*Qolmadi tanning madori, javru ozoring Chekib,
Jona ettuk, lutf qil, bo'lsang agar jononamiz.*

*Telba ko'rsang, ey pari, har lahza tut mahzurkim,
Biz junun sahrosidin kelgon iki devonamiz.*

*Xolu abro'yodida bo'lduk qarong'u ro'zgor,
Nur ila netgayyoruq etsang kelib koshonamiz.*

*O'zgalardin sonmakim, biz oshnolig'da hasan,
Ihtiroz etma, aroda yo'q erur begonamiz.*

*Ey, malohat mulkining sultoni, etma noumid.
Qullaringning qullari xaylida o'zni sonamiz.*

*Tushmasa gar arzimiz vasling qulog'iga qabul,
To tirikmiz, Zavqiy, Furqat hajr o'tig'a yonamiz¹.*

Uchinchi g'azal

*Oy jamoling shamhig'a har keCha o'rta yonamiz.
Jon nisor etmoqda go'yokim, pari, parvonamiz.*

*NeCha kundur, aylading bazmi visolingdin yiroq,
Ey pari, bo'yla xayoling istayub devonamiz.*

*Bog'layub ahli muhabbat, sanga bo'lduk oshno,
GarChi bo'lsa sarvqad jilvagahi begonamiz.*

*Jomi ishqingdin muhabbat bodasin ul dam ichib,
Forig'el tashvishidin, to ushbu dam mastonamiz.*

*MunCha g'avg'odin, raqibi ro'siyah, nedur murod?
Tabhi nozukdur, ko'tarmas fitnani jononamiz.*

¹ O'sha kitob, 21-bet.

***Xohi rad qilg'il bizi, xohi qabul et, shahriyor,
Dast "alif-lom" xizmatigda turguchi mardonamiz.***

***Oy jamolingdin ko'tar etti hijob, to'qqiz niqob,
Chun harimi vaslinga mahram bo'lolmayyonamiz.***

***Qolmadi toqat tag'ofuldin, nigoro, ham chu tifi,
Vahdai halvoga tokay talpinib aldonamiz.***

***Aksarini Nisbatiy, kam Zavqiyu Furqat dedi,
Biz ham istig'no etib mundog'javondin tonamiz¹.***

Birinchi g'azal adabiyot ahliga ustoz adabiyotshunos, marhum G'.Karimovning oliy o'quv yurtlari talabalari uchun yozilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi orqali ma'lum edi. To'g'ri, G'.Karimov asli 9 baytli bu g'azalning 6 baytini keltirgan, xolos. Adabiyotshunos nima sababdan bunday qilgani bizga ma'lum emas. G'azalning 2-, 3-, 4-baytlari tushirib qoldirilgan. Natijada u olti baytli g'azal sifatida o'quvchilar diqqatiga havola qilingan. G'.Karimov yozishicha, "Mazmunan xarakterli bo'lgan bu g'azal o'zining umumiy ruhi va uslubi bilan Furqatning mashhur "Uch xarobotiy" musaddas-tarjibandini eslatadi. Bu g'azalda ham "Uch xarobotiy" musaddas-tarjibanddagi kabi samimiy muhabbatga ega bo'lgan, lekin yorning bevafoqligidan alam va iztirob Chekkan "uch oshiq" haqida fikr yuritiladi. Bu g'azalda ham istig'no bilan o'z yoridan kechib, falsafiy mulohazalar olamiga otilgan "nozik tabiatli" oshiqlar obrazi gavdalanib turadi. G'azal g'oyaviy yo'nalishi jihatidan "Uch xarobotiy" musaddasidagi mazmunni davom ettirishi bilan birga, qofiya, vazn va badiiy obrazlar sistemasida ham unga o'xshab ketadi"².

Ikkinchi g'azal ham adabiyot ahllariga ma'lum. Uning matnini dastlab taniqli adabiyotshunos, marhum A.Abdug'afurov o'zining "Zokirjon Furqat" risolasida keltirgan³. Mazkur nashrda ushbu g'azal to'qqiz baytli bo'lib, quyidagi bayt unda ettinchi bo'lib kelgan:

***Ayladuk taklifi vayrona, Sulaymon deb sani,
Garchi mo'ri lang yanglig'qodiri bir donamiz.***

"Ajab zamona" kitobida mazkur g'azalning sakkiz baytli bo'lib kelgani noshirlarning boshqa qo'lyozma bayozga asoslanganlaridan bo'lsa kerak. A.Abdug'afurov mazkur g'azalni "shu vazn va qofiyalarda hamda etakchi ruh jihatidan musaddasga hamohang" deya tahriflaydi. Muallif g'azalni Furqat qalamiga mansub deb hisoblaydi va yuqorida keltirilgan birinchi g'azalni "Zavqiy ham bu mavzuda qalam tebratib, Furqat g'azaliga har jihatdan monand nazira yaratadi, u ham lutf bilan Furqat taxallusini o'z g'azalida keltiradi. Ammo Furqat g'azalidan

¹ O'sha kitob, 22-bet.

² Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Uchinchi kitob. Toshkent, "O'qituvchi", 1975, 191-bet.

³ Abdug'afurov A. Zokirjon Furqat(hayoti va ijodi). Toshkent, "FAN", 1977, 129-bet.

farqli o'laroq, Zavqiy nazirasi uch shaxs nomidan yozilganki, bu uni yuqorida so'z yuritilgan musaddas ("Uch xarobotiy" - R.T.)ga yanada yaqinlashtiradi"¹.

Ikkinchi va uchinchi g'azallar 1990 -yilda A.Madaminov tomonidan ehlon qilingan edi². Biroq ular Furqat ijodi namunalari sifatida kitobxonlarga taqdim etilgan.

BizningCha, ushbu birinchi va ikkinchi g'azallarni Furqat va Zavqiyning, uchinchi g'azalni esa Nisbatiy, Zavqiy va Furqatlarning ijodiy hamkorligida yaratilgan desak, yanglishmagan bo'lamiz. Ularning shu tariqa yaratilgani g'azallar maqtahlarida ham yaqqol aks etib turibdi.

Mazkur g'azallar akademik A.P.Qayumovning "Uch xarobotiy" musaddasi muallifi masalasidagi taxminlarini qo'llab-quvvatlaydi. Nisbatiy, Zavqiy va Furqatlar dastlab mazkur g'azallarni bitganlar, so'ngra shu g'azallar vazni va qofiyasi bilan bog'lanuvchi mazkur musaddasni yaratganlar. Musaddasda har uch shoirning 1883-1886 -yillardagi kayfiyatlari, hayotga qarashlari o'z aksini topgan. O'sha paytlarda, Furqat hali Qo'qonda yashab yurganida ushbu shoirlar mahnan juda yaqin bo'lganlari ayni haqiqat.

Ana endi asl maqsadimizga keldik. "Uch xarobotiy" musaddasi Nisbatiy, Zavqiy va Furqatlarning ijodiy hamkorligi mevasi o'laroq dunyoga kelgan deyish mumkin. Shehrning lirik qahramonlari – "uch xarobotiy", "uch alamkash", "uch qalandar", "uch birodar", "uch musofir", "uch adoyi", "uch navoyi", "uch g'aribiy", "uch vafoyi", "uch balokash", "uch mukaddar" esa, bizningCha, hamshahar, hamfikir, hamnafas, hammaslak shoirlar Nisbatiy, Zavqiy va Furqatdirlar.

¹ Abdug'afurov A. O'sha manba.

² Madaminov A. Furqatning yangi topilgan shehlari // Kitobda: Furqat ijodiyoti. Toshkent, "FAN", 1990, 120-122-betlar.

IX SINFDA FURQAT SHE'HLARINING VAZN XUSUSIYATLARINI O'RGANISH¹

Qo'qon adabiy muhitining eng taniqli namoyandalaridan bo'lgan mashhur shoir Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1859-1909)ning ijodini keng va chuqur o'rganish har bir o'quvchining vazifasi bo'lmog'i lozim deb o'ylaymiz. Chunki Furqat o'tkir istehdodi bilan xalqimiz orasida keng shuhrat qozongan atoqli o'zbek shoirlaridan biridir.

Mustaqillik -yillarida shoir ijodini umumiy o'rta tahlim maktablarida o'rganishga katta ehtibor berilmoqda. "Umumiy o'rta tahlim maktablari uchun adabiyot fanidan Dastur"da Furqat ijodini IX sinfda o'rganish ko'rsatilgan. Dasturga asosan 9-sinf uchun Chiqarilgan darslik-majmua(Toshkent, 2006; mualliflar: Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshibekov)da Furqatning beshta g'azali, bittadan muxammas va musaddasi berilgan. Mazkur shehrlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini to'laqonli o'rganishda ularning vaznlariga xos bo'lgan jihatlarni ham ehtiborga olish zarur. Chunki adabiyot fanidan Davlat tahlim standartlariga sharhlarda uqtirilishicha, "Umumiy o'rta maktab bitiruvchisi ... mumtoz badiiy asarlardagi shehr sanhatlari, badiiy usullar, qofiya, radif, **vazn o'lchovlari singari shakliy xususiyatlarni farqlay olishi va shu asosda badiiy matnni tahlil qila olishi; aruz vazni va ularning o'lchovlarini farqlashi hamda badiiy asar talqinida qo'llay olishi lozim**"².

Quyida shoirning 9-sinfda o'rganilishi ko'zda tutilgan shehrlarining vazn xususiyatlarini ko'rib Chiqamiz:

I. *Fas-li nav/-ba-hor o'l-di/ ke-ti-bon/ zi-mis-ton-lar,*
- V - / V - - - / - V - / V - - -
Do's-t-lar/ g'a-ni-mat-dir/ say-re-ting/ gu-lis-ton-lar.
- V - / V - - - / - V - / V - - -
Fo-i-lun / ma-fo-iy-lun / fo-i-lun / ma-fo-iy-lun

Demak, ushbu g'azal **hazaji musammani ashtar** vaznida yozilgan.

II. *Ul qa-ro ko'z ko'z-la-ri-ga sur-ma be-jo tor-ta-dur,*
- V - - / - V - - / - V - - / - V ~
Bal-ki an-din dah-re-li or-tiq-Cha g'av-g'o tor-ta-dur.
- V - - / - V - - / - V - - / - V ~
Fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lon

G'azal **ramali musammani maqsur** vaznida yozilgan. Ammo g'azalning 3-, 5-, 7-, 15-, 17-, 19-misralari, yahni qofiyalanmaydigan ayrim satrlari

¹ Maqola N.Tojiboeva bilan hamkorlikda yozilgan.

² "Umumiy o'rta tahlimning Davlat tahlim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (tahlim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun)". 1999 -yil, I-maxsus son, 148-154-betlar.

ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgan bo'lib, ruknlari "foilotun / foilotun / foilotun / foilon" shaklidir:

Vazn talabiga ko'ra, 2-misradagi "dahr eli" birikmasida vasl qoidasi qo'llaniladi, yahni bu birikmadagi ikki so'z biri-biriga qushib o'qiladi. 6-baytdagi "husn ila" birikmasini o'qishda ham mazkur qoidani qo'llash kerak bo'ladi. 5-baytdagi "bo'y", "bog'ning", "bog'bon" so'zlari "bo'-o'y", "bo-g'-ning", "bo-g'-bon" tarzida, yahni bir bo'g'in ortirib o'qish talab etiladi. 6-baytdagi "ishq" so'zi "ish-q", 7-baytdagi "ishqni", "mushk" so'zlari "ish-q-ni", "mush-k", 8-baytdagi "kajraftorning", "ayshni" so'zlari "kaj-raf-to-r-ning", "ay-sh-ni" tarzida o'qilishi lozim.

III. *Sur-ma-din ko'z- / lar qa-ro qo'l- / lar xi-no-din / lo-la-rang,*

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

G'o-za-din yuz- / lar-da to-bu / o's-ma-din qosh- / lar ta-rang.

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lun

Demak, ushbu **g'azal ramali musammani mahzuf** vaznida yozilgan. Ammo g'azalning 5-, 7-, 9-, 15- misralari, yahni qofiyalanmaydigan ayrim satrlari **ramali musammani maqsur** vaznida yaratilgan bo'lib, ruknlari "foilotun / foilotun / foilotun / foilon" shaklidir:

Bo-ri no-zik pan-ja-lar ol-tun u-zuk-din ze-b-nok...

– V – – / – V – – / – V – – / – V ~

Gav-har os-qon hal-qa-lar siy-min ta-no-g'u-shi-da band...

– V – – / – V – – / – V – – / – V ~

G'am-za bir-la o'l-tu-rur gah jil-va-lar bir-la yu-rur...

– V – – / – V – – / – V – – / – V ~

Ul pa-ri-vash ish-qi-din-ki tel-ba-dur-men go-h sog'...

– V – – / – V – – / – V – – / – V ~

Aruz vaznida yozilgan deyarli barCha shehrlarda mana shu kabi hodisa uchrashini tahkidlashni istardik. Chunki ko'rsatilgan misralardagi oxirgi hijolar o'ta Chuziq bo'lib, bu esa "foilon" ruqnini hosil qilyapti. Natijada vaznning nomida o'zgarish bo'lmoqda. Aslida bu ikki vazn – ramali musammani mahzuf va ramali musammani maqsur o'rtasidagi farq deyarli sezilmaydi, Chunki misra oxiridagi bo'g'in Cho'ziq hijo bo'lsa ham, o'ta Cho'ziq hijo bo'lsa ham, baribir boshqa Cho'ziq xijolarga qaraganda Cho'ziqroq talaffuz etiladi. Lekin vaznni nomlashda mahzuf ruqni bilan maqsur ruknini bir-biridan farqlash lozim.

Vazn talabiga ko'ra 2-baytdagi "ro'ymol" so'zini "ro'-yi-mol", 3-baytdagi "zebnok" so'zini "ze-b-nok", 6-baytdagi "sho'x-shang" so'zini "sho'-xi-shang", 7-baytdagi "menga" so'zini "me-nga", 8-baytdagi "goh" so'zini "go-hi", 9-baytdagi "javrlarkim" so'zini "jav-ri-lar-kim" tarzida o'qish kerak bo'ladi. 2-baytdagi "ko'ylak uzra" birikmasini esa "ko'y-la-kuz-ra" shaklida o'qish lozim. Shuningdek, 3-baytdagi "gavhar osqon", 9-baytdagi "Furqat ul" birikmalarini o'qishda ham "vasl" qoidasini qo'llash lozim.

IV. *Biz is-tig'-no e - li qich - qir-ma-g'on mah-vo - g'a bor-mas-miz,*

V - - - / V - - - / V - - - / V - - -
A-gar Chan-di-ki xir-man ay-la-sa dun - yo - g'a bor-mas-miz.
 V - - - / V - - - / V - - - / V - - -
Ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun

G'azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan.

Bu g'azalni ifodali o'qishda ham vazn talabalariga rioya qilish kerak bo'ladi. 1-baytdagi "biz istig'no" so'zini "bi-zis-tig'-no", 2-baytdagi "zohir etsa" birikmasini "zo-hi-ret-sa", "mavj uran" birikmasini "mav-ju-ran", 4-baytdagi "xalq aro" birikmasini "xal-qa-ro", 6-baytdagi "biz ellar", "faqr elimiz" birikmalari "bi-zel-lar", "faq-re-li-miz" shaklida o'qish lozim. Buni vasl qoidasi talab etadi.

V. **Ki-shi ho-lim- ni bil-mas meh-/ri - bo - ni-din/ a-dash-gan-man,**
 V - - - / V - - - / V - - - / V - - -
Va-tan o-vo-/ ra - dur-man do'/-s-to-ni-din / a-dash-gan-man.
 V - - - / V - - - / V - - - / V - - -
Ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun

Muxammas hazaji musammani solim vaznida yozilgan.

Bu muxammasda ham vazn talabiga ko'ra 1-banddagi "do'stonidin" so'zini "do'-si-to-ni-din" shaklida, 2-banddagi "g'amnok" so'zini "g'am-no-ok" shaklida, "Chok" so'zini "Cho-ok" tarzida o'qish kerak bo'ladi. Aks xolda vazn ohangdorligi talabdagidek Chiqmaydi.

VI. **Say-ding qo'-/ya-ber say-yod / say-yo-ra / e-kan men-dek,**
 - - V / V - - - / - - V / V - - -
Ol do-mi-/ ni bo'y-ni-din / be-Cho-ra / e-kan men-dek.
 - - V / V - - - / - - V / V - - -
Mafh-uv-lu / ma-fo-iy-lun / mafh-uv-lu / ma-fo-iy-lun.

Demak, bu musaddas hazaji musammani axrab vaznida yozilgan. Shehrni o'qishda 7-, 14-, 19-22-, 25-28-, 31-misralarda "vasl" qoidasini qo'llash kerak bo'ladi.

Umumiy o'rta tahlil maktablari adabiyot dasturidan o'rin olgan mumtoz shehriyatimiz nafosatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bo'lgan aruz vaznini o'rganish davr talabidir. Shunday ekan, mumtoz shehriyatimiz namunalarini o'quvchilarga o'rgatishda ularning vazn xususiyatlarini ehtibordan soqit qilmaslik har bir adabiyot muallimining muhim vazifasidir.

FURQAT HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATINING ASOSIY SANALARI

1859-yil 1-mart – Qo'qonning Beshariq mahallasida (hozirgi akademik Tesha Zohidov ko'Chasi) kichik savdogar Xolmuhammad oilasida tug'ildi.

1866 -yil – Mahalladagi Muhammad Olim maktabdor domla qo'lida o'qiy boshladi.

1866-1867 -yillar – Avval “Haftiyak”ni, so'ng “Qurhoni Karim”ni xatm qilib, “CHor kitob”ni o'qib Chiqdi. Xat mashq qildi.

1867 -yil – Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qush nutqi”) dostonini o'qib Chiqdi. Hofiz Sheroziy, Bedil devonlari bilan tanishdi.

1868 -yil – Mir Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniyy” lirik kulliyotini o'qib tugatadi. Tushida hazrat Navoiyni ko'radi, ulug' shoir duosini olishga muvaffaq bo'ladi va shehr mashqiga ruxsat oladi. Dastlabki baytlarini bitadi.

1869 -yil – Fuzuliy g'azaliyoti va So'fi Ollohyorning “Maslakul-muattaqiyn” asari bilan tanishadi.

1869-1870 -yillar – Makdabdor domlaga xalifalik qiladi. Mullo Qambar Ali nomli xattotdan Chiroyli yozish sirlarini o'rganadi.

1870-1871 -yillar – Maktabni tamomlab, Ashur Muhammad qoridan qiroat ilmini o'rganadi.

1871-yil – Masjidi Jomehda turuvchi Podshohxo'ja eshon nomli mudarrisga shogird tushib, “Avvali hol”, “Avvali ilm”, “Bidon”, “Muhzi Vazanjoniy” kitoblarini o'qib o'rganadi.

1872 -yil – “Avomil”, “Harakat” risolalarini, “Kofiya” kitoblarini o'qib o'rganadi.

1873-1876 -yil – “Sharhi mulloyi Jomiy”, “Risoi shamsiya” kitoblarini o'rganadi.

1876-1876-yillar – Qo'qon xonligi Chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan ishg'ol etildi. Xonlik tugatilib, Farg'ona oblasti tashkil topdi. Urush sababli madrasalarda o'qishlar to'xtab qoldi. Zokirjon otasi yonida “tiriklik ishiga mashg'ul” bo'ladi.

1878-1880-yillar – Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) shahrida tog'asi oChgan do'konda xizmat qiladi. Madrasa dasturi bo'yicha tahlimni davom ettirib, “Aqoid” kitobini o'rganadi. Odamlarning arizalarini yozib beradi. “Munojot-musaddas” shehrini yozib, unda Rossiya mustamlakachilik siyosatidan noroziligini bildiradi.

1880-1886-yillar – Qo'qonda yashab, savdo ishlari bilan shug'ullanadi. Ayni paytda Muhyi, Muqimiy, Zavqiy, Nisbat boshqa qo'qonlik shoirlar bilan ijodiy hamkorlik qiladi. “Hammomi xayol” risolasini manzuma qildi; “CHor darvish” hikoyasini, “Nuh manzar” nomli asarni o'zbek tiliga shehriy tarjima qildi. Shehlari Farg'ona vodiysi va boshqa o'lkalarda mashhur bo'ldi, hofizlar tomonidan kuylana boshlandi.

1886-1889 -yilning boshlari – Marg'ilonlik do'sti Muhammad Sharif ismli savdogar do'stining taklifi bilan Marg'ilonga keladi. Savdogarlik qiladi. Masjidi

Jomehdan hujra olib yashaydi. Mulla Muhammad Amin ismli mudarrisdan “Sharhi viqoya” kitobi bo’yicha tahlil oladi. Gazeta o’qiy boshlaydi. Marg’ilonlik mulla Shamsiddin mufti, qozi kalon domla Xo’jajon qozi Roziy, shoir Umidiy-Havoiiy va boshqalar bilan do’stlashadi.

1889 -yil, yanvarning oxirlari – Qo’qonga kelib, bir kecha-kunduz uyida turadi, so’ng uch kun yo’l yurib Xo’jand shahriga keladi.

1889 -yil, fevral-iyun – Xo’jandlik do’sti Mirzo Nasrullo ismli savdogarning va boshqa do’stlarining uylarida yashaydi. So’ng madrasada istiqomat qiladi, ism tahsili bilan mashg’ul bo’ladi. Olimlar, shoirlar, fozillar va sanhatkorlar bilan do’stlashadi. Xo’jand atrofiga sayr-sayohatga Chiqadi. Baliq ovida bo’ladi.

1889-yil, iyun – Do’sti Hoji Ahzamning taklifi bilan Toshkentga keladi. Ko’kaldosh madrasasida istiqomat qiladi. Toshkentlik olimlar, shoirlar, sanhatkorlar va fozillar bilan do’stlashadi. Sharifxo’ja eshonning taklifi bilan “Furqat” taxallusini “Farhat”ga o’zgartirib, mahlum muddat yangi taxallusda shehrlar yozadi. Biroq bu hol uzoq davom etgan emas.

1890 -yil 23 mart – Isfaralik do’sti Hoji Muhammad Zuhurning taklifi bilan izvoshda Toshkentning yangi shahar qismida sayrda bo’ldi. Toshkent Erlar gimnaziyasi direktori N.P.Ostroumovning taklifi bilan mazkur tahlil muassasasini tomosha qildi va evropaCha tahlil tizimi qoidalari bilan ilk bor tanishib Chiqdi. Gimnaziya o’qituvChilari va ularning faoliyati bilan tanishdi.

1890 -yil 31 mart – “Turkiston viloyatining gazetii” 13-sonida Furqatning 1890 -yil 23 marta do’sti Hoji Muhammad Zuhur bilan gimnaziyani borib ko’rgani haqida xabar bosilgan.

1890-yil 11 aprel – “Turkiston viloyatining gazetii” 14-sonida Furqat qalamiga mansub “Bir Xo’qandlik tolibul-ilmning xati” nomli maqolasi Chop etildi. Unda muallifning do’sti Hoji Muhammad Zuhur bilan gimnaziyani borib ko’rgani va undan olgan taassurotlari bayon etilgan. Bu maqola Furqatning vaqtli matbuotdagi ilk asari hisoblanadi. Maqolaning so’ngida olgan taassurotlari asosida shehr yozganini bildiradi. Maqola so’ngida “Ul nazmlar keladurg’on gazetda bosilur” deb qayd etilgan.

1890-yil 17-aprel – “Turkiston viloyatining gazetii” 15-sonida Furqatning 23 mart kungi taassurotlari asosida yozgan “Gimnaziya” shehri ehlon qilinadi.

1890-yil, mart – 1891-yil, may – Toshkentdagi Shayxovandtohur madrasasining yonida yashovChi sozanda do’sti Mahmudxo’janing uyida istiqomat qiladi.

1890 -yil 14 may – “Turkiston viloyatining gazetii”da “Ilm xosiyati” masnaviysi bosildi.

1890 -yil 3 iyun – Furqat Toshkent Erlar gimnaziyasida akt (imtihon) majlisida ishtirok etdi. Xudoyorxon haqidagi muxammasini N.P.Ostroumovga berdi.

1890 -yil 2 iyul – Shoirning “Akt majlisi xususida” shehri “Turkiston viloyatining gazetii”da ehlon qilindi.

1890 -yil 14 iyul – “Toshkand shahrida bo’lg’on nag’ma bazmi xususida” masnaviysi “Turkiston viloyatining gazet”da nasriy tarjimai bilan ehlon qilindi (53 bayt).

1890 -yil 23 iyul – “Turkiston viloyatining gazet” 30-sonida Furqatning 1890 -yil 26 iyunda do’stlari Mirzo Buxoriy, Karomat qorilar bilan Toshkent Erklar gimnaziyasini borib ko’rgani haqida xabar bosilgan.

1890 -yil 24 iyul – Furqat gimnaziyaning kutubxonasi bilan tanishdi.

1890 -yil 26 iyul – Samarqandlik do’stlari Mirzo Sodiq hamda Karomat qorini gimnaziya bilan tanishtiradi.

1890 -yil, yoz – Furqat Muqimiya shehriy maktub yubordi. Bu vaqtda u “Turkiston viloyatining gazet”da tarjimonlik ham qilayotgan edi.

1890 -yil 2-3 sentabr – Furqat Toshkent shahrida tashkil etilgan vistavkani borib ko’rdi.

1890 -yil 6 sentabr, 11 sentabr – “Turkiston viloyatining gazet” 35-36-sonlarida “Vistavka xususida” masnaviysi bosildi. Unda 2 sentabrda borib ko’rgan vistavkadan olgan taassurotlari ifodalangan.

1890 -yil 30 sentabr – “Turkiston viloyatining gazet” 39-sonida “Toshkand shahridagi vistavka xususida” nomi bilan masnaviy ehlon qilindi.

1890 -yil 18 oktyabr – “Turkiston viloyatining gazet” 41-sonida “Janob ministr xususida” masnaviysi ehlon qilindi.

1890 -yil 5 oktyabr – Furqat Toshkentdagi teatrda rus dramaturgi N.Kulikovning “Suvorov qishloqda, Milanda va yaxshi ayollar orasida” pg’esasini tomosha qildi.

1890 -yil 12 noyabr – “Turkiston viloyatining gazet” 44-sonida “Suvorov haqida” manzumasi Chop etildi.

1890 -yil 20 noyabr – “Turkiston viloyatining gazet” 45-sonida “Suvorov haqida” manzumasining davomi rus tilidagi nasriy tarjimai bosildi.

1890 -yil 4 dekabr – “Turkiston viloyatining gazet” 47-sonida Furqatga gazetada bosilgan shehlari uchun Turkiston general-gubernatori general-leytenant baron Vrevskiy tomonidan movut Chakmon sovg’a qilingani haqida xabar bosildi.

1890 -yil 30 dekabr – “Turkiston viloyatining gazet” 50-sonida “Suvorov haqida” manzumasining oxiri ehlon qilindi.

1891 -yil 19 yanvar – Furqat N.P.Ostroumovga “Gap xususida”, “To’y xususida”, “Aza xususida” risolalarini topshirdi. Mazkur risolalar etnografik (elshunoslik) mazmunida bo’lib, ular N.p.Ostroumov iltimosiga ko’ra yozilgan.

1891 -yil 22 yanvar – Furqat Turkiston general-gubernatori baron Vrevskiy nikida balda ishtirok etadi.

1891 -yil 22 yanvar – 28 iyun - “Turkiston viloyatining gazet”da “Xo’qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli, o’zi yozg’oni” sarlavhasi ostida adibning esdaliklari Chop etildi. Ularda Furqatning bolaligidan 1891 -yil may oyigaCha bo’lgan hayoti nasriy tarzda bayon etilgan.

1891 -yil 28 yanvar – “Turkiston viloyatining gazet” 4-sonida Furqatning baron Vrevskiy nikida 22 yanvarg’ kuni bo’lib o’tgan baldan olgan taassurotlari aks etgan masnaviysi rus tilidagi tarjimai bilan bosilgan (65 bayt).

1891 -yil 10 fevral – Furqat Turkiston general-gubernatori baron Vrevskiynikiga ikkinchi marta mehmonga boradi

1891 -yil 14 fevral - “Turkiston viloyatining gazet” 6-sonida “Shoir ahvoli va shehr mubolag’asi xususida” masnaviysi Chop etilgan (28 bayt).

1891 -yil 22 fevral – “Turkiston viloyatining gazet” 7-sonida Furqatning baron Vrevskiynikida bo’lib o’tgan baldan olgan taassurotlari masnaviy shaklida ehlon qiladi. Shehr rusCha nasriy tarjimasi bilan ehlon qilingan (62 bayt).

1891 -yil 19 mart – “Turkiston viloyatining gazet” 11-sonida “Nag’ma va nag’magar va aning asbobi va ul nag’ma tahsiri xususida” masnaviysi rusCha nasriy tarjimasi bilan bosildi (46 bayt).

1891 -yil 14 may – Toshkentdan Samarqandga jo’nadi.

1891 -yil may-iyulning boshlari – Samarqandda mahalliy etnograf-arxeolog olim Mirzo Buxoriyning uyida yashaydi. Samarqanddagi tarixiy yodgorliklar bilan tanishdi.

1891 -yil 22 iyun – “Turkiston viloyatining gazet” 24-sonida Furqatning “Samarqand shahrida turg’uchi hurmatlik Mirzo Buxoriyning xabarlar” nomli maqolasi ehlon qilindi. Maqolada Samarqand taassurotlari va Mirzo Buxoriy haqidagi mahlumotlar bayon qilingan. Unga “YOzg’uchi Zokirjon Furqat” deb imzo qo’yilgan.

1891 -yil iyulg’ – Buxoroga keldi.

1891 -yil iyulg’-noyabr – Buxoro – Marv – Ashxobod – Boku – Batumi – Istanbul yo’nalishida sayohat qildi.

1891 -yil 10 avgust – “Turkiston viloyatining gazet” 31-sonida Furqatning samarqandlik Mirzo Buxoriy haqidagi ikkinchi maqolasi bosildi.

1891 -yil noyabr – 1892 -yil mart – Istanbulda yashadi, Bolgariya va Yunoniston (Gretsiya)da bo’ldi. Toshkentdagi do’stlariga qarata hozir shartli ravishda “Sabog’a xitob” deb nomlanayotgan shehriy maktubini yozdi. “Yunon mulkida bir afsona” (“Rumoli qiz hikoyati”) manzumasini yaratdi.

1892 -yil, mart – Shom, Misrda bo’ldi.

1892 -yil 8 aprel – “Turkiston viloyatining gazet” 14-sonida “Xo’qandlik shoir Zokirjon Furqatning Istambuldin yozg’on maktubi” nomi ostida maqola bosildi. Xat oxirida gazeta redaktsiyasi tomonidan quyidagicha mahlumot berilgan: “Ushbu maktubni yozg’uvchi Furqat ushbu vaqtda Istambuldin jo’nab, Jadda shahrig’a borib, andin Makkai muazzamaga ketibdur”.

1892 -yil aprel-iyul – Saudiya Arabistonining Jadda shahriga bordi. Makka va Madina shaharlarida bo’lib, muborak haj ziyoratini amalga oshirdi.

1892 -yil 10 sentabr – 1893 -yil, 20 mart – Arabiston dengizi orqali, Hindistonning Bombay (Mumbay) shahriga keldi. Qo’qonlik Hoji Ahmadjon Sohıbning Bistariy mahallasidagi uyida yashadi. Hoji Ahmadjon, asli buxorolik Hoji Muhiddin va Mavlaviy Ikromiddin ismli vatandoshlari bilan Bombay atrofi, Hindiston viloyatlari va shaharlari bo’ylab sayohatda bo’ldi.

1893 -yil 12 mart – “Turkiston viloyatining gazet” 10-sonida “Zokirjon Furqat shoirni gazet muallifig’a yozg’on maktubi” ehlon qilindi.

1893 -yil mart-aprel – Bombaydan Hindiston shimolidagi Kashmir viloyatiga keldi. “Kashmirda” g’azalini yozdi.

1893 -yil 30 aprel – “Turkiston viloyatining gazetisi”da Furqatning “Boʻmbaydan xat” nomli shehriy maktubi eʼlon qilindi.

1893 -yil 22 may – “Turkiston viloyatining gazetisi” 20-sonida “Biz gazet muallifi hurmatlik Furqat shoir tarafidin ushbu maktubni olub, gazetgʻa mundarij qilduq” soʻzlari bilan shoirning maktub-maqolasi chop etildi. Unda shoirning Hindiston muzofotlari boʻylab uch-toʻrt oy sayohat qilgani, soʻng Kashmir viloyatiga borgani, u erdan CHin (Xitoy) mamlakatiga bormoqchi ekani maʼlum qilingan.

1893 -yil sentabrgʻ oʻrtalari – Yorkent shahriga etib keldi.

1893 -yil sentabrgʻ - 1909 -yil sentabr – Furqat Yorkentda yashadi. Rahnoxon ismli ayolga uylanib, undan 9 nafar farzand (6 oʻgʻil, 3 qiz) koʻrgan. Ammo bolalarining koʻpchiligi vafot etib, Nozimjon, Hakimjon va Nodirjon ismli uch oʻgʻli hayot boʻlgan (Nodirjon 1983 -yilda vafot etgan). Tabobat bilan shugʻullangan. Maʼlum bir vaqt dorivor oʻsimliklar savdosi bilan shugʻullangan. Ilmi nujum bilan ham qiziqqan. Ogʻir kasallarni ham davolagan. Xalq orasida “Qoʻgʻirchoq tabib” nomi bilan mashhur boʻlgan.

1893 -yil 13 noyabr – “Turkiston viloyatining gazetisi” 45-sonida Furqat haqidagi quyidagi xabar chop etildi: “Hurmatlik gazit oʻqugʻuchilargʻa maʼlum oʻlsunkim, oshno hurmatlik shoir Zokirjon Furqat taxalluslik bizga calom birlan xat yuboribdur. Ul xatda aytadurkim: “Bu kunlarda Koshgʻar viloyatigʻa bormoqchi boʻldum va anda bir kecha fursat turub qolib, andin keyin, xudo xohlasa, Toshkand shahrigʻa keladurman”, – deb. Va yana mazkur hurmatlik Furqat shoir janob poʻlkuvnik Joʻrabekka va Muhiddin eshongʻa va Abdusattor qozigʻa koʻb salom aytadur. Furqat oʻzi sogʻ va salomat turadur”.

1894 -yil 7 sentabr – “Turkiston viloyatining gazetisi” 26-sonida “Shoir Zokirjon Furqatning Yorkand shahridin yiborgan xabari ushbudurkim” sarlavhasi ostida maqolasi bosildi. Unda Yorkent shahri haqida maʼlumotlar bayon etilgan. Jumladan, “Yorkand odamlari nihoyatda yaxshi va toʻgʻri odamdurlar va obod va arzonchilik erdur” deb yozilgan.

1896 -yil 7 fevral – “Turkiston viloyatining gazetisi” 5-sonida Furqatning “Yunon mulkida bir afsona” manzumi chop etildi. Sarlavhasi: “Xoʻqandlik Zokirjon afandining yigirma toʻrt “Yunon mulkida bir afsona”si (87 bayt). Oxirida “Baqiyasi boʻlsa kerak” deb izoh berilgan.

1896 -yil 25 iyun – “Turkiston viloyatining gazetisi” 29-sonida Furqatning Yorkanddan yozgan maktub-maqolasi bosildi. Unda Yorkentdagi savdogarchilikning ahvoli haqida yozgan.

1896 -yil 18 avgust – Qrimda chop etilgan “Tarjumon” gazetasining 32-sonida Furqatning Qoshgʻar viloyatida yashayotgani, Toshkentdagi gazetaga (“Turkiston viloyatining gazetisi”ga – R.T.) maktub yozib turgani haqida xabar bosilgan.

1897-yil 28 noyabr – “Turkiston viloyatining gazetisi” 45-sonida “Xoʻqandlik Zokirjon Furqatning “Pisayi ahvol” nom Hindiston gazetidin naql qilib yozgan xabari” maqolasi bosildi. Unda ingliz-afgʻon urushining ayrim tomonlari yoritilgan. Oxirida “Baqiyasi minbahd bosilur” de-yilgan.

1897-yil 5-dekabr – “Turkiston viloyatining gazetisi” 46-sonida Furqatning “Yahqubbek marhumning qo’lig’a tushgan Qashg’ar viloyatining ahvoli xususida” maqolasi bosildi. Oxirida: “Baqiyasi minbahd bosilur” deb yozilgan.

1897-yil 13-dekabr - “Turkiston viloyatining gazetisi” 47-sonida “Qashqar viloyatidagi sartiya xalqlarining zindakorChilik ahvollarini xususida” maqolasi imzosiz bosilgan. Ushbu maqola Furqat qalamiga mansub deb taxmin qilinadi.

1898-yil, bahor fasli – “Keldi bahor. Yomg’iri yog’di shatur-shatur qilib...” deb boshlanuvchi g’azalni yozdi.

1898-yil – Yorkentdan qo’qonlik shoir Ubaydulloh Zavqiyga shehriy maktub yubordi. Hozir bu asar “Zavqiyga maktub” nomi bilan Chop etilgan.

1903 -yil 9-iyun – “Turkiston viloyatining gazetisi” 22-sonida “Jahonda har nakim etti - xudovandi jahon etti” deb boshlanuvchi qasidasi e’lon qilindi (49 bayt).

1904 -yil 7 may – “Turkiston viloyatining gazetisi” 18-sonida Yorkentda yashovchi Zokirjon Furqatdan xat olingani haqida xabar bosilgan.

1904 -yil 23 may – “Turkiston viloyatining gazetisi” 21-sonida Furqatning “Askari Rusiya, kim monandi barqu sharar...” deb boshlanuvchi g’azal shaklidagi 11 baytli shehri e’lon qilindi. Shehr avvaliga: “1904-yilda 13-april oyida Yopuniya muhoralasi xususida bo’lg’on zafar xabari etushub, Yorkand shahrida Komiljon oqsoqolning ishorati bilan Zokirjon Furqatning natoiji afkoridin bir masarratnoma” deb yozib qo’yilgan.

1904 -yil 19-avgust – “Turkiston viloyatining gazetisi” 33-sonida Furqatning “Blagojelaniyu gosudaryu imperatoru” sarlavhasi ostida “Shahanshoi, ki darboni Doroyiyu Iskandar...” deb boshlanuvchi 29 baytli qasida janridagi shehri bosildi. Shehrning oxirida uning 1904 -yil 24 mayda yozilgani qayd etilgan.

1904 -yil 8-oktabr – “Turkiston viloyatining gazetisi” 40-sonida “Kel, ey Hotam, tili shirin zabon et” deb boshlanuvchi masnaviysi (72 bayt) va “Zihi shohi, ki shohi komrondur” deb boshlanuvchi 16 baytli g’azali e’lon qilingan. Oxirida “Yorkand shahrida turg’uchi Zokirjon Furqat shoir tarafidin hurmatlik general-mayor Jo’rabek dodxoh, gimnaziyadog’i mudarris Nazarif To’ra, Mirzo Abdulloh, Mahmudxo’ja eshon, YusufboybaChCha, hoji Ahzamlarg’a salomimiz bor” deb qayd etilgan.

Taxminan 1903-yilning oxiri - 1904 -yilning boshlari – Zokirjon Furqat “Yorkand shahridan Toshbaltuni qilgan xatig’a yiborgan manzuma javobidur” sarlavhali shehriy nomasini yozdi. Bu noma shoirning marg’ilonlik do’sti mulla Toshbaltu Roiqqa yozilgan.

1905 -yil 6 aprel – “Turkiston viloyatining gazetisi” 14-sonida Furqatning “Xorijiy shahridin yozg’on bir oshning so’zi” nomli maqolasi bosildi. Unda Rus-yapon urushi voqealarini matbuotda to’g’ri yoritish masalasi qo’yilgan.

1905 -yil 14 aprel – “Turkiston viloyatining gazetisi” 15-sonida Furqatning “Hind nayrangbozi Yorkentda” maqolasi e’lon qilindi. Felheton janridagi bu asar rus tilida “Indiyskiy fokusnik v Yarkende” sarlavhasi ostida bosilgan. Unda hindistonlik Navro’z ismli firibgarning Yorkentda qilgan qilmishlari fosh etilgan. Bu asar o’zbek felhetonChiligining ilk namunasi hisoblanadi.

1905-yil 27-avgust – “Turkiston viloyatining gazetasi” 34-sonida “Stixi iz Yarkenda” sarlavhasi bilan Furqatning “Rus askarlari tahrifida” shehri bosilgan (55 bayt). Oxirida: “Baqiyasi minba’ d yozilur deb Zokirjon Furqat” deb qayd etilgan.

1905-yil 22 dekabr – “Turkiston viloyatining gazetasi” 50-sonida Furqatning “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy” maqolasi bosildi. Uning davomi gazetaning 1906-yildagi 1-yanvarda chiqqan 1-soni, 15- va 22-fevralarda chiqqan 7-8-sonlarida chop etilgan. So’nggi maqolasining oxirida “Baqiyasi bor” deb yozilgan bo’lsa ham davomi bosilmagan.

1909-yil sentabr – Zokirjon Furqat Yorkent shahrida vafot etdi. Shahardagi “Dongdor” qabristoniga dafn etildi.

1957-yil - Qabriston buzilishi munosabati bilan Furqatning xoki yangi qabristonga ko’chirildi.

1991-yil – Furqatning qabri ustiga muhtasham maqbara qurildi.

MUNDARIJA

Furqat abadiyati	28
“Fasli navbahor o’ldi” g’azali tarixi.....	32
“Uch xarobotiy” kimlar edi?.....	36
IX-sinfda Furqat shehrlarining vazn xususiyatlarini o’rganish	41
Furqat hayoti va ijodiy faoliyatining asosiy sanalari.....	44